

QADIMGI G'ARB PEDAGOGIKASIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

M.N Bozorova

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15555831>

Annotatsiya. Ushbu maqola g'arb pedagogikasining umuminsoniy qadriyatlarini o'rganishga bag'ishlangan hamda ularning boshqa xalqlar umuminsoniy pedagogikasining rivojlanishida tutgan o'rni, G'arb ta'lim tizimida shakllangan asosiy tamoyillar, erkinlik, tenglik, inson huquqlari ijtimoiy adolat va demokratiya kabi qadriyatlar tahlil qilinadi.

Kalit sozlar: G'arb pedagogikasi, umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlari, erkin fikrlash, demokratiya, tenglik, ijtimoiy adolat, madaniyatlararo muloqot.

Ming yillardan beri insoniyat tarixi davomida tarbiya va ta'lim jamiyat rivojining asosi bo'lib kelgan. Ayniqsa, qadimgi g'arb sivilizatsiyasida — Yunoniston va Rimda — pedagogika nafaqat bilim berish jarayoni, balki insonni barkamol, ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida yetishtirish san'ati sifatida qaralgan. Bu davr pedagogikasi yaratgan umuminsoniy qadriyatlar hozirgi zamon ta'lim tizimlari uchun ham poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

G'arb pedagogikasining umuminsoniy qadriyatlari, g'arb faylasuflari yaratgan noyob durdona qarash va g'oyalari asrlar davomida insoniyat qalbida ildiz otib kelmoqda. G'arb pedagogikasida aql va bilimni qadrlash umuminsoniy qadriyatlarda biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Platon, Arastu, Aristotel kabi g'arb muatafakkirlari ta'limni aqlni o'stiruvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi vosita deb bilganlar.

Antik davr falsafasining rus millatiga mansub bo'lgan yirik namoyandasi Asmus Platon haqida shunday chiroyli fikrlar bildirgan edi: "Platon bo'lmaganda biz qadimgi yunonlar haqida ko'plab narsalarni bilmagan bo'lar edik, falsafa, san'at nazm, ilhom, inson va uning intilishlari, amaliy ishdagi qiyinchiliklarning sehrli kuchi nimada ekanligi" haqida ko'plab noyob ma'lumotlar qoldirgan. Bundan ko'rinib turadiki, qadimgi Yunoniston pedagogikasida sa'nat nasr va nazmda alohida e'tibor qaratilgan, amaliy ishlar bilan muntazam shug'ullanib kelganlar o'z mehnatlari ustidan yuksak cho'qqilarni zabt etganlar. Bu so'zlarning yaqqol namunasi sifatida qadimgi yunon faylasufi Demokritning quyidagi so'zlarini keltirishimiz mumkin: "Barcha axmoqona xatti-harakatlarlar ilmsizlikdan, bekorchilikdan kelib chiqadi" - degan gapini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari Demokrit na jismoniy kuch, na moddiy boylik insonni baxtli qila oladi. Haqiqiy ko'p qirrali donolik insonni haqiqiy baxt sari eltadi, degan bebaho fikrlarni ilgari surgandi. Haqiqatdan ham inson hayotda moddiy boyliklarni ortidan quvmasdan faqat ma'naviy kamolot sari intilganda, ko'proq bilim olib ustozlari bergan bilimlaridan to'g'ri xulosa chiqarganda o'zining bu fazilatlarini o'zidan keyingi zurriyodlarga meros tariqasida qoldirishi mumkin. Xalq orasida qush uyasida ko'rganini qiladi, degan maqol bejizga aytilmagan. Biz ota-onalar, bobo-buvilar uyda nima ish qilsak, farzandlarimiz ham bizning izimizdan boradi. O'gri, kazzob, bekorch insondan tarbiya olgan insonlar hamda ma'rifatparvar, oqil, donishmand insonlar tarbiya qilgan insonlar qanday bo'lishini ko'rganmiz.

Qadimgi yunon faylasuf va donishmandlari ham xuddi shunday garchi, o'ziga to'q zodagon oilalarda tug'ulib voyaga yetgan bo'lsalar-da, umrlarinig oxirigacha o'qib izlanib, o'zidan keyingi avlodlariga juda katta ma'naviy ozuqa bo'ladigan juda katta meros qoldirib

ketganlar. Demokritning shogirdi Platon ham ustozining izidan borib, o'z davrining yetuk donishmandi, ilmi, ziyoli kishisi bo'lib yetishdi. Buning yaqqol namunasini uning quyidagi ibratli so'zlaridan bilib olishimiz mumkin: Platon bilimni inson joniga ozuqa bo'luvchi bebaho ne'matga o'xshatadi. Bundan ko'rinib turadiki, ilmdan o'zga najot yo'q. Ilm insonlarni ruhiy va aqliy rivojlanishiga ta'sir etuvchi, insonni zulmatdan nurga yetaklovchi kuchdir. Bu so'zlar bilan Platon ilm inson ruhiyatini boyitishini, ongini yoritishini, hayot yo'lini aniqlashtirishini yaqqol isbotlab bergan.

Bundan tashqari Demokrit ham o'z qarashlarida xalqni sabr-qanoatga, vijdonli bo'lishga, barcha narsalarda me'yorga amal qilishda, mol-dunyo ketidan quvib ochko'zlik qilmaslikka da'vat etadi. "Ochko'z kishining qismati asalarining qismatiga o'xshaydi, ular shunday ishlaydilar, go'yo bir umr yashaydigandek, deb o'zining hikmatli so'zlarida ta'rif beradi.

Bejizga dono yunon xalqi Demokritni o'z davrining faylasufi deb atashmagan. Bu o'rinda Demokrit asallari oddiy bir ongsiz jonzo u nechi yil yashashini qanday qilib savob amallar ila umr o'tkazishni bilmaydi, lekin o'z davrining ayrim insonlari ham xuddi shu ongsiz kishilar kabilik, deb tanqid qilib o'tadi.

Yana bir yunon faylasufi Aristotel bo'lib uning asosiy qarashlari odod- axloq borasida bo'lib, masalalarga alohida to'xtalib o'tadi. Aristotel odob-axloq masalalari bo'yicha alohida asar yaratgan. "Nikomax etikasi" deb atalgan bu asar aslida uning o'g'liga bag'ishlangan bo'lib, monolog tarzida yaratilgan va unda to'g'ri yurib turish, odob-axloq borasida pand va nasihatlar jamlanmasidan iborat. Aristotel axloqni birinchi o'ringa kiritgan faylasuflardan biri hisoblanadi.

Aristotel adolat to'g'risida ham to'xtalib, adolatni axloqiy qarashlari orasida birinchi o'ringa qo'yadi. U adolatsiz kishilarni qonunni buzuvchi, boshqalarga teng munosabatda bo'lmaydiganlar deb, adolatli kishilarni esa barcha insonlarga teng bir xil munosabatda bo'ladigan, qonunni buzmaydiganlar kishilar deb ta'rif beradi.

Xulosa qilib aytganda, g'arb pedagogikasi nafaqat kasbiy bilim va malakalarni oshirishda, balki, inson huquqlari, erkin fikr, demokratiya, ijtimoiy adolat, tenglik kabi bebaho qadriyatlarini shakllantirishda xizmat qiladi. O'zining shaxsga yo'naltirilganligi, umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashi bilan butun insoniyat uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi. Har bir davlat, o'z milliy an'analarini saqlagan holda, g'arb pedagogikasining ilg'or jihatlaridan unumli foydalanishi mumkin. Bu esa global ta'lim maydonida raqobatbardosh, erkin fikrlaydigan, ilg'or fikrlovchi kelajak avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Z.K.Ismailova. Pedagogika. 2007.
2. N.Murodov. "Pedagogikada umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati" O'zbekiston pedagogikasi jurnali. 2021. №4. 45-50 betlar.
3. Bozorova M.N. G'arb pedagogikasi umuminsoniy qadriyatlarining rivojlanishi. 2025.
4. Dewey J. Democracy and Education. Macmillan. 1916
5. Freire P. Pedagogy of the oppressed. Continuum. 1970
6. Xalqaro ta'lim va pedagogika jurnali. №3, 2022
7. Komilovna I.N. Ziyo Distributed From Tezguzar. JournalNX, 30-33.

8. Komilovna I.N. (2022). Ibrahim Muminov's Scientific and Philosophical Heritage and Subjective Approaches to His Scientific Activity Under the Rule of the Former Ideology. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 556-559.
9. Ibodova N.K. (2023). ALI QUSHCHI FAOLIYATINI TADQIQ ETISHDA IBROHIM MO'MINOVNING ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 824-829.
10. Komilovna I.N. (2024). Philosophical Lines to Academician Ibrahim Muminov's Activity. *Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice*, 2(1), 15-18.
11. Ibodova N.K. (2024). THE ROLE OF IBRAHIM MOMINOV IN STUDYING THE PERSONALITY OF AMIR TEMUR. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(4), 154-157.
12. Ibodova N. (2024). ACADEMIC IBRAHIM MOMINOV: MY FIRST TEACHER IS MY MOTHER. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 436-438.
13. Ibodova N., & Raupova, R. (2023). ÖZBEK EDEBİYATI DİLİNİN MODERNİTE DÖNEMİNDE GELİŞİMİNDE ÇOLPON'UN ROLÜ. *Philological issues are in the eyes of young researchers*, 1(1). 2023
14. Ibodova Nasiba Komilovna. (2024). ANALYSIS OF IBRAHIM MOMINOV'S CREATION OF ABU RAYHAN BERUNI. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(4), 359–365. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5153>
15. Ibodov G.K. (2023). KLASSIK VA MAXSUS - YORDAMCHI MASHQLARNING YUKLAMA ME'YORI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15), 13–16. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4660>
16. Ibodov Ghalibjon Komilovich. Classic And Special -The Loading Standards of Assistant Exercises. *Journal of Sustainability Integrated Policy and Practice*. 2024. 19-21-p. <https://journals.proindex.uz/index.php/SIPP/article/view/485/419>
17. N.K.Ibodova. Classification of Lexical Units in the Language of Modern Poetry According to Form and Meaning Relationships. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*. 2024. 163-166-p. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4226/4140>
18. N.K.Ibodova. RELATIONSHIPS OF FORM AND MEANING IN JADID POETRY. *NEW RENAISSANCE international scientific journal*. 2024. 924-978-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14217148>
19. N.K.Ibodova. THE PERIOD OF GREEDISM: LANGUAGE AND POETRY. *International scientific journal. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»* 2024. 651-655-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14543293>
20. N.K.Ibodova. LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF NEW POETRY. *NEW RENAISSANCE international Scientific Journal*. 2025. 905-908-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14738912>
21. N.K.Ibodova. LINGUISTICS - IN A LINGUISTOCULTURAL ASPECT. *«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»*. *International scientific journal*. 2025. 634-638-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14888209>

22. N.K.Ibodova. ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL UNITS. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. 2025. 312-318-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15034562>
23. N.K.Ibodova. LINGUISTICS AND ITS STUDY. NEW RENAISSANCE international Scientific Journal. 2025. 996-1003-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15242278>
24. S.Sulaymanova, N.K.Ibodova. FORMATION OF MORAL RULES IN PRESCHOOL CHILDREN. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal 4 (4), 2025. 1136-1140-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15245855>
25. M.Hoshimova, N.K. Ibodova. SPECIFIC ASPECTS OF THE DEVELOPMENT, BEHAVIOR, AND ACTIVITIES OF THREE-YEAR-OLD CHILDREN. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2. 2025, 615-618-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389272>
26. H.Bahronova, N.K. Ibodova. FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON VALUES. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2. 2025, 380-382-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15368115>
27. N.K. Ibodova. METHODS AND TASKS OF LINGUISTOCULATORY STUDIES. «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal. VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / 2025, 1019-1023-p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15467571>